**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

"Tasdiqlayman"
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori prof. Sh.S.Sharipov
__________________
2022 yil "____"_________

# PEDAGOGIK TADQIQOTLARNI MODELLASHTIRISH FANINING O`QUV DASTURI

(1-kurs)

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000– Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000 – Ta’lim |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | 70110101- Pedagogika nazariyasi va tarixi (Faoliyat turlari bo‘yicha) |

**Jizzax – 2022**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1 | **Fan/Modul kodi**<br>351PTMT04<br>(magistratura) | **O`quv yili**<br>**2022-2023** | **Semestr**<br>**I** | **Kreditlar**<br>**4** |
| | **Fan/Modul turi**<br>**Tanlov fan** | **Ta`lim tili**<br>**O`zbek** | | **Haftadagi dars soatlari**<br>**4** |

| Pedagogik tadqiqotlarni modellashtirish | Ham-masi | Jami auditoriya | Ma'ruza | Amaliy | Seminar | Mustaqil ta'lim |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1-semestr | 120 | 60 | 30 | 30 | - | 60 |
| **Jami** | 120 | 60 | 30 | 30 | | 60 |

2\. **I. Fanning mazmuni**

**Fanning maqsadi** - magistrantlarni pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va amalga oshirishga tayyorlash, metodologik madaniyatni tarkib toptirish.

**Fanning vazifalari** - magistlarning pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishning metodologik qoidalarini egallashlarini ta'minlash; ularning tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish mantig'ini o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratish; magistlarni magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida pedagogik tadqiqotlarni o'tkazishga tayyorlashdan iborat.

**Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarning mazmuni va mohiyati. (2 soat)**

Ijtimoiy-gumanitar izlanish sifatida pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xosliklari. Pedagogika fani metodologiyasi bilim va faoliyat tizimi sifatida.

**2-mavzu.Pedagogik tadqiqotlarning metodologik ta'minoti va pedagogik refleksiyaga doir manbalari. (2 soat)**

Pedagogik tadqiqotlarning metodologik ta'minoti. Pedagogik refleksiyaga doir manbalari.

**3-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari va tushunchalari. (2 soat)**

Metododologik tadqiqot va maxsus ilmiy tadqiqot. Pedagogik ijodkorlik va uning o'ziga xosliklari. Intuitsiya, zehn va pedagogik tafakkur.

**4-mavzu.Pedagogik izlanish. Innovatsion faoliyat va innovatsion salohiyat. (2 soat)**

Pedagogik izlanish.Inovasion faoliyat. Inovatsion salohiyat tushunchasi.

| | |
|---|---|
| 3. | **5-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarda ilmiy dalillar va ularning roli. (2 soat)**<br>Ilmiy dalilning mantiqiy-gnoseologik mohiyati. Pedagogik tadqiqotlarning mantiqiy-gnoseologik modeli. Empirik ma'lumotlar, misollar va illyustratsiyalar. Ilmiy dalillar ilmiy bilimlarning tarkibiy qismi sifatida. Ilmiy dalillarning o'ziga xos xususiyatlari.<br>**6-mavzu. Pedagogik muammoni tanlash va pedagogik tadqiqot mavzularini shakllantirish. (2 soat)**<br>Pedagogik tadqiqotlar muammosi. Pedagogik tadqiqotlar muammosining turlari (informatsion, konseptual, kvalimetrik va tashkiliy-metodik) va darajalari (fenomenologik, konseptual, eksperimental). Pedagogik tadqiqotlar mavzularini aniqlashtirishning metodologik me'yorlari. Tadqiqot mavzusining muhim belgilari.<br>**7-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarning dolzarbligini aniqlash. (2 soat)**<br>Tadqiqot muammosining dolzarbligi. Tadqiqot muammosining dolzarbligini asoslash. Tadqiqot mavzusi va dolzarbligini asoslashda yo'l quyiladigan tipik xatoliklar.<br>**8- mavzu. Pedagogik tadqiqotlar ob'yekti va predmeti. (2 soat)**<br>Tadqiqot ob'yekti va predmeti maydonini aniqlashtirish. Tadqiqot ob'yekti va predmetining muhim belgilari. Tadqiqot ob'yekti va predmetini aniqlashda yo'l qo'yiladigan tipik xatoliklar.<br>**9-mavzu. Pedagogik tadqiqotning maqsad va vazifalari. (2 soat)**<br>Tadqiqotning maqsadi – ilmiy izlanishning ideal (bashorat qilinayotgan) natijasi. Tadqiqot maqsadini aniqlashga quyiladigan metodologik talablar. Tadqiqotning ilmiy-nazariy va konstruktiv-normativ funksiyalari.<br>**10- mavzu: Pedagogik tadqiqotlar farazini belgilash. (2 soat)**<br>Tadqiqot gipotezasi – ilmiy dalillashni talab etuvchi farazlar tizimi. Tadqiqot farazining turlari. Tadqiqot farazini aniqlashga qo'yiladigan asosiy talablar. Tadqiqotning farazini belgilashda produktiv yondashuvning o'rni.<br>**11-mavzu: Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari. (2 soat)**<br>Pedagogik fanlar metodologiyasining umumilliy tamoyillari. Pedagogik tadqiqotlarning konkret-metodologik tamoyillari.<br>**12-mavzu. Ilmiy izlanuvchining metodologik madaniyati. (2 soat)**<br>Ilmiy izlanuvchining metodologik madaniyati – kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida. Ilmiy izlanuvchida metodologik madaniyatni tarkib toptirish darajalari. Ilmiy izlanuvchida metodologik madaniyatni shakllantirish shart-sharoitlari.<br>**13-mavzu. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarini tasniflash muammolari. (2 soat)**<br>Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari tushunchasi. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari tasnifi va tavsifi. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarining imkoniyatlari.<br>**14-mavzu. Adabiyotlar va arxiv materiallarini o'rganish, kuzatish,** |



| | |
|---|---|
| | strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son,70-modda.<br>**Internet saytlari:**<br>1. www.ziyonet.uz.<br>2. www.edu.uz.<br>3. www.google.uz.<br>4. www.gov.uz. |
| 9. | Pedagogik tadqiqotlarni modellashtirish fanining o`quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 202__ yil "___"_________dagi ____-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan. |
| 10. | **Fan/modul uchun ma`sullar:**<br>Rahmatova F Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) |
| 11. | **Taqrizchilar:**<br>To'raqulova I.X A.Qodiriy nomidagi JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi<br>B. Xodjayev Nizomiy nomidagi TDPI Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori ,professor |

| | |
|---|---|
| 7. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar.**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to`g`ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.<br>**Joriy nazorat.** Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.<br>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.<br>**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.<br>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.<br>**Yakuniy nazorat**<br>Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. |
| 8. | **VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Xodjaev B.X., Choriev A., Salieva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi - T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018<br>2. To'raqulov X.A., Hasanboev J.J., Usmanov N.O'., Alqarov I.SH., To'raqulov O.X. Ilmiy tadqiqot asoslari. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2011<br>3. Kraevskiy V.V. Metodologiya pedagogicheskogo issledovaniya: Posobie dlya pedagoga –issledovatelya. – Samara: Izd-vo SamGPI, 1994.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11<br>2. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". "O'zbekiston", 2017.<br>3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar |



| | |
|---|---|
| 4. | **suhbat, so'rov, test, eksperiment – empirik tadqiqot metodlari sifatida. (2 soat)**<br>Ilmiy-pedagogik bilimlarning manbalari: birlamchi manbalar, arxiv xujjatlari, dissertatsiya, avtoreferat, maqola va tezislar. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil etish usullari: adabiyotlar ro'yxatini tuzush, konspektlashtirish, tezis yozish, sitatalash, annotatsiya yozish, taqrizlash. Kuzatish – asosiy ilmiy tadqiqot metodlaridan biri sifatida. Kuzatishning turlari. Kuzatishning o'ziga xos xususiyatlari. Tadqiqot metodi sifatida suhbatning muhim xususiyatlari. Suhbat metodini qo'llashga qo'yiladigan metodologik talablar. So'rov metodining asosiy shakllari. Test savollarini tuzish qoidalari. Test metodini qo'llashga qo'yiladigan talablar. Tabiiy eksperiment, laboratoriya eksperimenti, aniqlovchi eksperiment, shakllantiruvchi eksperiment. Eksperimentni amalga oshirish bosqichlari.<br>**15. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish metodi. (2 soat)**<br>Ilg'or pedagogik tajriba - yangi g 'oya, yondashuv va texnologiyalar manbai.Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish bosqihlari. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish usullari. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish qoidalari.<br>**III.Amaliy mashg`ulotlari bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar**<br>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, «Keys-stadi» texnologiyasi ishlatiladi, Keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.<br>Amaliy mashg`ulotda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo`ladi. O`qituvchi darsga kirib tashkiliy ishlarni o`tkazadi, auditoriyani darsga tayyorgarligi yozish va o`chirish vositalarining mavjudligi hamda o`quvchilarning davomati aniqlanadi. Amaliy mashg`ulot darslarida savol-javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag`batlantiradi.<br>Amaliy mashg`ulotda ko`proq talabalar guruhini bir nechta kichik guruhlarga ajratib o`qitishning aqliy hujum, bahs-munozara, suhbat metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar talabalarni mavzu yuzasidan ko`proq mustaqil fikr yuritishga, o`z fikrini bayon etishga undaydi. Darsga bo`lgan qiziqishlarini oshirib, diqqatlarini jamlashga o`rgatadi. Bundan tashqari amaliy mashg`ulot so`ngida o`qituvchi har bir talabaning faoliyatini togri va xolisona baholashga erdishishi zarur. |

Shuningdek, baholarni e`lon qilib faol o`quvchilarning familiyalarini aytib rag`batlantirishi va aksincha passiv, nutqi rivojlanmagan yoki uyatchan talabalarga yengil tanbeh berishi ham muhim ahamiyatga ega.

Amaliy mashg`ulot darslarini dastur bo`yicha sifatli o`tilishini talabalar bilimining o`z vaqtida adolatli va xolisona baholanishini fandan ma`ruza olib boruvchi o`qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek amaliyot o`qituvchisi bilan dastur bajarilishi uchun amaliy darslarda nimalarga alohida e`tabor qaratilishi, ma`ruzada mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko`proq yoritilgani va boshqa o`quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib fikrlashib turishlari lozim.

### III.1. Amaliy mashg`uloti mavzulari

**1-mavzu: Pedagogika fani- pedagogik refleksiya ob'yekti sifatida. (2 soat)**

**Reja:**

1. Ijtimoiy-gumanitar izlanish sifatida pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xosliklari.
2. Pedagogika fani metodologiyasi bilim va faoliyat tizimi sifatida.
3. Pedagogika fani- pedagogik refleksiya ob'yekti sifatida

**2-mavzu: Pedagogika fani metodologiyasi bilim va faoliyat tizimi sifatida. (2 soat)**

**Reja:**

1.Pedagogika fani metodologiyasi
2. Pedagogika fani metodologiyasi bilim va faoliyat tizimi sifatida

**3-mavzu: Metodologik tadqiqot va maxsus ilmiy tadqiqot. (2 soat)**

**Reja:**

1. Metododologik tadqiqot
2. maxsus ilmiy tadqiqot
3.Tadqiqotlarni amalga oshirish yo'llari

**4-mavzu: Pedagogik tadqiqotlarning metodologik ta'minoti darajalari va manbalari. (2 soat)**

**Reja:**

1. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik ta'minoti darajalari
2. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik manbalari



so'z, tarmoqlarga unga bog'liq boshqa atamalar yoziladi. Ular ham o'z navbatida tarmoqlarga ajralishi mumkin.

Venn diagrammasi O'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslash, o'xshash va farqli jihatlarini topish, tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Diagrammadagi doirachalar alohida ob'ektni, kesishmalar esa ularning o'xshash va bog'liq jihatlarini bildiradi. Talabadan ob'ektlarning alohida (1-3), o'zaro bog'liq (4-6) va umumiy (7) jihatlarini yozma ifodalab berish talab etiladi.

**3) SWOT–tahlil.** Bu organayzer talabalarda tizimli fikrlash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. SWOT atamasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi: Strengths – ob'ektning kuchli jihatlari; Weakness – kuchsiz jihatlari; Opportunities – tashqi imkoniyatlari; Threats – tashqi xavf-xatarlari. Talaba yangi qatordan S, W, O, T harflarini yozib yoniga ob'ektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

**4) "Baliq skeleti" sxemasi.** Bu organayzer tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Balik skeletining bosh qismiga – mavzu, yuqori qismiga –muammolar, pastki qismiga – tasdiqlovchi dalillar yoziladi.

**5) Aqliy hujum usuli.** Bu usul dars mavzusiga oid savolga javob topish maqsadida g'oyalarni jamlash va saralash uchun qo'llaniladi. Har bir talaba o'zining shaxsiy g'oyalarini ilgari suradi. Bosqichlari – muammoli vaziyat paydo qilish; yechimni topish uchun g'oya, fikr berish; yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosa qilish.

**6) Esse.** Bu mavzu bo'yicha cheklangan hajmda yoziladigan insho hisoblanadi. Esseda talaba o'quv materiali bo'yicha o'zining shaxsiy fikrini erkin ifoda etadi.

***Interfaol o'qitish usullari (Activity)***

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol o'qitish usullari qo'llaniladi. Bu usullar talabalarda jamoada ishlash, kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Quyida fan xususiyatlariga xos ba'zi usullar bayon etilgan.

**1) «Tushunchalar tahlili» usuli**. Talabalar tushunchalarni dastlab yakka tarzda va keyin jamoada muhokama qilishadi. O'qituvchi jamoaning fikrini yo'naltirib turadi va oxirida ekranga atamalarning izohini chiqaradi. Talabalar o'z fikrlarini taqqoslashadi, baholashadi va bilimlarini mustahkamlashadi.

**2) «Zinama-zina» usuli**. Talabalar mavzu bo'yicha yakka tarzda fikrini grafik ifoda etishadi, keyin guruhda muhokama etishadi. Guruhlar taqdimoti o'tkaziladi va grafik materiallar doskaga mantiqiy pog'onalar tarzida ilib boriladi.

| | |
|---|---|
| 5. | **V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar.**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:<br>– pedagogik tadqiqiotlarning mazmun-mohiyati;<br>– pedagogik tadqiqotlarning asosiy tushunchalari;<br>– pedagogik tadqiqotlarda ilmiy dalillar va ularning roli;<br>– fundamental, amaliy va innovatsion pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish hsart-sharoitlari ***haqida bilimga ega bo'lishi;***<br>– pedagogik tafakkur uslublari;<br>– pedagogik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari;<br>– pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari;<br>– pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish;<br>– pedagogik tadqiqotlar samaradorligi mezonlarini aniqlash;<br>– pedagogik tadqiqotlarda tizimli yondashuv va ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasini qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***<br>– pedagogik tadqiqotlar samaradorligini baholash;<br>– pedagogik tadqiqot natijalarini interpretatsiya qilish;<br>– pedagogik tadqiqot ishlarini himoyaga tayyorlash va ommalashtirish ***malakalariga ega bo'lishi lozim.*** |
| 6. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.**<br>*Grafik organayzerlar*<br>Grafik organayzerlar ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida talabalar o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishlari uchun joriy etiladi. Quyida ularning ba'zilari keltirilgan.<br>1) **BBB jadvali.** Barcha ma'ruza darslarida qo'llaniladi. BBB usuli ("bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim") orqali talaba o'zini kuzatishi, o'qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Talaba dars boshida mavzu bo'yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftariga yozib qo'yadi. Dars so'ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo'yadi.<br>2) **Insert usuli.** Bu usul matnni o'zlashtirishda qo'llaniladi. Talaba sahifa hoshiyasiga o'z belgilarini qo'yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: "v" – zarur; "–"- xato; "+" - yangi; "!" – e'tibor qiling; "x" - ortiqcha; "*" - ko'chirish kerak; "?" – tushunarsiz va h.k.<br><br>**Klaster sxemasi**<br>**Bu usul fikrni erkin bayon qilish uchun qo**'llaniladi. Masalan, talaba o'tilgan mavzu bo'yicha klaster tuzishi mumkin. O'rtaga kalit |



5-mavzu:Pedagogik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari va tushunchalari. (2 soat)

**Reja:**

1. Pedagogik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari
2. Pedagogik tadqiqotlarning asosiy tushunchalari

**6-mavzu: Innovatsion faoliyat va innovatsion salohiyat. (2 soat)**

**Reja:**

1. Innovatsion faoliyat
2. Innovatsion salohiyat
3. Pedagogik izlanish

**7-mavzu: Ilmiy dalilning mantiqiy-gnoseologik mohiyati. (2 soat)**

**Reja:**

1.Ilmiy dalilning mantiqiy-gnoseologik mohiyati
2.Ilmiy dadilning tadqiqot ishidagi o'rni

**8-mavzu: Ilmiy dalillar ilmiy bilimlarning tarkibiy qismi sifatida. (2 soat)**

**Reja:**

1.Ilmiy dalillarning mohiyati
2. Ilmiy dalillar ilmiy bilimlarning tarkibiy qismi sifatida.

**9-mavzu: Pedagogik tadqiqotlar muammosining turlari (informatsion, konseptual, kvalimetrik va tashkiliy-metodik) va darajalari (fenomenologik, konseptual, eksperimental). (2 soat)**

**Reja:**

1. Pedagogik tadqiqotlar muammosining turlari
2. Pedagogik tadqiqotlar muammosining darajalari
3. Pedagogik tadqiqotlar muammosining o'rganilishi

**10-mavzu: Pedagogik muammoni tanlash va pedagogik tadqiqot mavzularini shakllantirish. (2 soat)**

**Reja:**

1.Pedagogik muammoni tanlash
2. Pedagogik tadqiqot mavzusi
3. Pedagogik tadqiqot mavzularini shakllantirish

**11-mavzu:Tadqiqot mavzusi va dolzarbligini asoslashda yo'l quyiladigan tipik xatoliklar.** (2 soat)

**Reja:**

1.Tadqiqot mavzusi
2.Tadqiqot mavzusini shakllantirish
3.Tadqiqot mavzusi va dolzarbligini asoslashda yo'l quyiladigan tipik xatoliklar.

**12-mavzu: Tadqiqotning empirik va nazariy darajalarida qo'llaniladigan metodlar (abstraktlash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, modellashtirish).** (2 soat)

**Reja:**

1. Tadqiqotning empirik darajalarida qo'llaniladigan metodlar
2. Tadqiqotning nazariy darajalarida qo'llaniladigan metodlar
3. Tadqiqotning nazariy darajalarining tadqiqot ishidagi o'rni

**13-mavzu: Empirik tadqiqot metodlari.** (2 soat)

**Reja:**

1. Empirik tadqiqot metodlari
2. Empirik tadqiqot metodlarining tadqiqot ishidagi o'rni

**14-mavzu: Nazariy tadqiqot metodlari.** (2 soat)

**Reja:**

1.Nazariy tadqiqot metodlari
2.Tadqiqotlarning qo'llanilishi
3.Tadqiqot metodlarining ilmiy ishdagi ahamiyati

**15-mavzu:Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari.** (2 soat)

**Reja:**

1.Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish
2. Pedagogik tadqiqotlarni o'tkazish bosqichlari.

## IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq



o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

### IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. 1. Pedagogik tadqiqotlarning mazmuni va mohiyati
2. Pedagogik muammoni tanlash va pedagogik tadqiqot
3. Pedagogik tadqiqotlarning dolzarbligini aniqlash
4. Pedagogik tadqiqotlar farazini belgilash
5. Innovatsion faoliyat va innovatsion salohiyat.
6. Ilmiy dalilning mantiqiy-gnoseologik mohiyati
7. Empirik tadqiqot metodlari.
8. Nazariy tadqiqot metodlari.
9. Ilmiy izlanuvchining metodologik madaniyati
10. Adabiyotlar va arxiv materiallarini o'rganish, kuzatish, suhbat, so'rov, test, eksperiment – empirik tadqiqot metodlari sifatida
11. Pedagogik tajriba - sinov ishlari dasturini ishlab chiqish metodikasi
12. Pedagogik ilmiy tadqiqot jarayonini modellashtirish
13. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari
14. Pedagogik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari va tushunchalari
15. Pedagogik muammoni tanlash va pedagogik tadqiqot mavzularini shakllantirish